

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI BOTIR
ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
O'zbekiston huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi Milliy estrada san'ati
instituti rektori

Sohbi A.Mansurov

2024 yil “30” august

Ro'yxatga olindi: № MD 70211301- 1.03

ESTRADA ORKESTRI DIRIJJORLIK MAHORATI

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 210 000 – San'at
Ta'lif yo'nalishi: 70211301- Dirijyorlik (estrada orkestri dirijyorligi)

ESTRADA ORKESTRI DIRIJJORLIK MAHORATI FANINING O'QUV DASTURI

Fan/modul kodi EDM1409	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-4	ECTS-Kreditlar 9	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 2	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Estrada orkestri dirijyorlik mahorati	120	150	270
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Dirijyorlik san'ati davrlar o'tgani, orkestrning turlari ko'paygani sari takomillashib, ijro uslublarida o'zgarishlarga yuz tutmoqda va ta'lrim sohasida ham orkestr ijrosiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Dirijyorlik kasbi boshqa kasblarga nisbatan yosh, kelib chiqishi asosan XIX asrning II yarmiga borib taqaladi. Kompozitorlik texnikasini tez sur'atda murakkablashishi, ayniqsa Italiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida katta guruh ijrochilarini talab qiladigan opera, simfoniya, oratoriya, kantata kabi yangi janrlarni turli jamiyatlarning madaniy hayotida yuzaga kelishi mustaqil dirijyorlik kasbini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.</p> <p>Shu bois, dirijyorlik kasbi ham – mustaqil san'at yo'nalishi sifatida rivojlandi va katta yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda ushbu kasbning hurmatli namoyondalar ko'pchilikni tashkil etadi. Orkestr turlari ko'paygan sari, unga dirijyorlik qilish san'ati ham o'ziga xos talablarni qo'ya boshladи. Jumladan: opera-simfonik, damli cholg'ular, xalq cholg'ulari yoki kamer orkestri kabi jamoalarga dirijyorlik qilish, ushbu orkestrlarning spitsifikasiini chuqur his etish, repertuar tanlash, jamoa bilan ishslash va dirijyorlik harakatlarini yo'lga qo'yish shular jumlasidandir. Estrada orkestri dirijyorligi san'ati ham yuqorida sanab o'tilgan dirijyorlik kasbining yana bir yangi yo'nalishlaridan biridir. Estrada orkestri dirijyorligini o'qitish, ushbu dirijyorlik maktabini zamon talablaridan kelib chiqib yanada rivojlantirish va o'zbek dirijyorlik san'atini dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi kunda mustaqil davlatimizning obro'siga obro' qo'shishini hisobga olgan holda, bu fanning dolzarbligini aniqlab beradi.</p>			

ESTRADA ORKESTRI DIRIJJYORLIK MAHORATI FANINING O'QUV DASTURI

“Estrada orkestri dirijyorlik mahorati” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar ushbu yo‘nalishda bilimlarga ega bo‘lganliklarini amaliy namoyish etishlaridan iboratdir. Unda dirijyorlik fanini chuqur o‘zlashtirgan xolda, ushbu fandan o‘qituvchi sifatida talabalarga saboq bera olish vazifikasi asos qilib olinadi. “Estrada orkestri dirijyorlik mahorati” fani ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 8 semestr davomida o‘tiladi.

II. ASOSIY QISM Nazariy va amaliy mavzular (modullar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular (modullar) kiradi:

I-SEMESTR

1- modul. Partitura tanlash va dirijyorlik tahlili ustida ishlash (1-10 soatlar)

Talabaning zehni va qobiliyatiga qarab asar tanlanadi. Ushbu asar orqali uning kasbiy kamchiliklarini bartaraf etish va qo‘l texnikasini rivojlantirish asosiy vazifalardir. Shuningdek, partiturani dirijyorlik: qo‘l harakatlarini tanlash, dinamik, garmonik, xarakter, shtrix, shakl jihatidan, asosiy va ikkinchi darajalı mavzularni o‘rganish hamda tahlil qila olish kabi masalalar ham muhim o‘rin tutadi.

2- Modul. Jumlalar ustida ishlash (11 - 15 soatlar)

Asarni to‘liq o‘zlashtirish uchun avvalo jumlalarni bilish muhimdir. Ushbu jumla o‘ziga qanday vazifalarni qo‘yan va kompozitor bu bilan nima demoqchi, qo‘l harakatlari qanday olinadi kabi savollarga amaliy javob topa olish kerak.

Dirijyorlikda ifoda jihatlari, dirijyorning gavda holatlari va qo‘l qismlari, dirijyorlik harakatlarida qo‘llarning oraliq masofasi, holat, qo‘llar, tana (gavda), oyoqlar, bosh, mimika (yuz ifodasi), dirijyorlik texnikasi, obraz, estetika (go‘zallik), qo‘l qismlari, bilak, tirsak, yelka, balandlik, kenglik, chuqurlik, dirijyor tayoqchasi.

Dirijyorlik holatining ahamiyati, dirijyorlikda oyoqlar va qo‘llar holati, qo‘l qismlari va ularning vazifalari, bosh holati kabi mavzularni o‘z ichiga olib - holat, qo‘llar, tana (gavda), oyoqlar, bosh, mimika (yuz ifodasi), dirijyorlik texnikasi, obraz, estetika (go‘zallik), qo‘l qismlari, bilak, tirsak, yelka, balandlik, kenglik, chuqurlik kabi atamalarni amaliy hamda nazariy va amaliy tarzda o‘rganiladi.

Oraliq nazorat

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'nalishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Ushbu asarni dirijyorlik qilish orqali kafedra professor-o'qituvchilariga imtihon topshiriladi. Dirijyorlik qilish jarayonida talabaning dirijyorlik manual texnikasi, asar xolatiga kira olishlik, uning badiiy tomonlarini ochib berish, qo'l va gavda holatlari, orkestrni boshqara olish kabi mahoratlari inobatga olib baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

3- modul. Dinamik va shtrix ijrolarini o'rganish hamda ularga qo'l harakatlarini tanlash (16-30 soatlar)

Dinamik ijro asarning badiiy tomonlarini ochib berish uchun muhim jarayondir. Unda manual texnika va auftakt masalalarini o'z o'rnda ijro etish asosiy maqsaddir. Bunda, qo'llar holatini qiyinchiliksiz ishlata olish va sozandaga o'z vaqtida dinamik jihatdan yengil hamda tushunarli tarzda ko'rsata olish muhimdir.

Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat uchun yangi asar oliga bo'lishi kerak (klassika va estrada yo'nalishlarida). Asarning badiiy tomonlarini ochib berishda qo'llarning holatlarini (pastki, o'rta hamda yuqori) mahorat bilan amaliyatga tadbiq eta olishi va orkestr jamoasiga o'z vaqtida ko'rsata olishlik, partituraning yodlanganligi, va albatta asarning badiiy tomonlarini ochib berish kabi mahoratlari inobatga olinib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

II-SEMESTR

4- modul. Dirijyorlikda qo'llar mutanosibligi (31-45 soatlar)

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'nalishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Ijro jarayonidagi qo'llar texnologiyasi, qo'llar vazifasi, qo'llarning o'zaro munosabati, dirijyorlik, texnologiya, texnika, applikatura, ifodalilik, badiiy ijro, sinxron (parallel) harakat kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda o'rganiladi.

Oraiq nazorat

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'naliishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Ijro jarayonidagi qo'llar texnologiyasi, vazifasi, qo'llarning o'zaro munosabati, dirijyorlik, texnologiya, texnika, applikatura, ifodalilik, badiiy ijro, sinxron (parallel) harakatlarning bartaraf etilganligi kabi mahoratlari inobatga olinib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

5- modul. Jamoa bilan ishlash, asar ijrosining butunligiga erish

(46-60 soatlar)

Jumlalar talqini o'zlashtirilganidan so'ng, asarning butun ijrosiga erishish lozim bo'ladi. Unda: oddiy, murakkab, aralash o'lchovlar, dirijyorlik chizmalari, metr, ritm, musiqiy sur'at (temp), texnik ko'rsatmalar amaliy hamda nazariy tarzda chuqur o'rganiladi. Shuning bilan birga orkestr guruuhlarini birlashtirish, ular ijrosining uyg'unligi va bir butunligiga erishish asosiy vazifadir.

Yakuniy nazorat

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'naliishlarida) sinfda jo'mavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Jumlalar talqini o'zlashtirilganligi, asarning butun ijrosiga erishilganligi, oddiy, murakkab, aralash o'lchovlar, dirijyorlik chizmalari, metr, ritm, musiqiy sur'at (temp), texnik ko'rsatmalar amaliy hamda nazariy tarzda chuqur o'rganilganligi, shuning bilan birga orkestr guruuhlarini birlashtirish, ular ijrosining uyg'unligi va bir butunligiga erishish kabi mahoratlari inobatga olinib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

III-SEMESTR

5- modul davomi. (61-75 soatlar)

Jamoa ijrosini ta'minlash, dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari, badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari, muloqot (orkestr bilan), ansambl, auftakt, intilish, nuqta, nuqtaning aksi, badiiy ijro, manual texnika, tayoqcha, oddiy va murakkab o'lchovlar hamda ularning chizmalari kabi atamalarni amaliy hamda nazariy tarzda o'rganiladi.

Oraliq nazorat

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'nalishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Unda jamoa (orkestr) ijrosini ta'minlash, dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari, badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari, muloqot (orkestr bilan), ansambl, auftakt, intilish, nuqta, nuqtaning aksi, badiiy ijro, manual texnika, tayoqchani ishlata bilishi, oddiy va murakkab o'Ichovlar hamda ularning chizmalarini to'g'ri tanlanganligi, ularni amaliyotda ishlata olishi kabi mahoratlari inobatga olinib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

6- modul. Badiiy ijrochilikni amalga oshirishda dirijyorlik harakatlari va ularning turli ko'rinishdagi talqinlari. (76-90 soatlar)

Ovozni so'ndirish, fermata va uning turlarai, takt oldi, pauza, sinkopa, temp (musiqiy surat), metronom, agogika harakatlari amaliy hamda nazariy tarzda chuqur o'rganiladi.

Yakuniy nazorat

Dirijyorlik qilish uchun tanlab olingen asar (klassika va jaz yo'nalishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga dirijyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi. Ovozni so'ndirish, fermata va uning turlarai, takt oldi, pauza, sinkopa, temp (musiqiy surat), agogika harakatlari amaliy hamda nazariy tarzda chuqur o'rganilganligi va amaliyotga mohirona tadbiq eta olganligi kabi mahoratlari inobatga olinib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi. Shuningdek, asar va dirijyorlik bo'yicha kallokviumga (og'zaki savol-javob) tayyor bo'lishi lozim.

Savollar va talablar ushbu fanning Sillabusida keltirilgan.

III-IV SEMESTRLAR

7-modul. Konsert ijrochiligi (III-semestr) va Davlat imtihoniga tayyorgarlik (IV-semestr). (91-120 soatlar)

Talaba III-semestrda orkestr bilan konsert berishi uchun asarlar tanlanadi. Repertuar rang-barangligiga (jaz ijrochiligi yo'nalishlari, jo'rnavozlik, klassika) alohida e'tibor beriladi. Semestr so'ngida orkestr bilan konsert beradi.

IV-semestda esa Davlat imtihoniga tayyorgarlik ko'rildi. Unda to'rt semestr davomida o'rganilgan barcha nazariy hamda amaliy bilim hamda ko'nikmalarini amaliy tarzda ko'rsatishiga harakat qiladi. Diriyyorlik qilish uchun tanlab olingen asarlar (klassika va jaz yo'nalishlarida) sinfda jo'rnavozlar bilan va keyinroq orkestr jamoasiga diriyyorlik qilish amaliyoti bilan o'tadi.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi.

Ijro dasturini topshirish:

(dasturning ikkita asari talaba tomonidan orkestrga cholg'ulashtirilgan bo'lishi kerak)

1. Jaz (estrada) yo'nalishida, turli xarakterdagи ikkita asar (orquestr ijrosida);
2. Jo'rnavozlik san'atiga oid, turli xarakter va yo'nalishdagi 2 ta asar. (Yakkavanov yoki yakkaxon bilan)
3. Dasturga magistratura davrida talabaning o'quv dasturida o'tilgan asarlardan biri kiritilishi mumkin.
4. Agar talaba xohlasa o'ziga yoqgan asardan yana bitta – 5- qo'shimcha asar sifatida ko'rsatishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish:

Magistrlik dissertatsiyasini baholashda talabalarning bilimi, berilgan mavzuning nazariy va ilmiy tomonidan chuqur bilishi, fikrashi, o'z fikrini tinglovchiga lo'nda, ravon yetkazib bera olishi, muloqot san'ati kabi jihatlari e'tiborga olinadi va shu asosida baholanadi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Partitura tanlash.
2. Asar xarakteri hamda obraz jihatidan chuqur tanishish.
3. Jumlalarni topish.
4. Shakl tahlili.
5. Kompozitorning hayoti va ijodi bilan tanishish.
6. Asardagi jumllalarini daromad va avj nuqtalarini topish.
7. Amaliy ijroga o'tish va dirijyorlik holatlarini o'z o'rniqa qo'yish.
8. Yuz ifodasi (mimika), bosh va qo'llar holatini boshqarish.
9. Qo'llardagi kenglikni boshqarish.
- 10.Orkestr jamoasi ijrosini qamrab olish.
- 11.Dinamik ijrolarni tahlil etish va ularga auftakt harakatlarini o'rganish.
- 12.Shtrix ijrolarni tahlil etish va ular ijrosini ta'minlash uchun qo'llar holatini o'rganish.
- 13.Aсоси ijrolarni sozandalarga o'z vaqtida ko'rsata olish va qo'llar harakatining aniqligiga erishish.
- 14.Asar jumllalarini birlashtirish va kamida ekspozitsiya hamda rivojlov qismlarini o'zlashtirish.
- 15.Parallel (sinxron) harakatlarni bartaraf etish.
- 16.Qo'llar texnologiyasi va vazifalarini chuqur o'rganish.
- 17.Asarning butun ijrosiga erishish va unda badiiy ifoda jihatlarini o'rganish.
- 18.Qo'llarning o'zaro munosabati va holatlarini o'z vaqtida ishlata olish texnologiyasini o'zlashtirish.
- 19.Guruqlar bilan ishslash, ularning joylashuvini qo'llarda erkin namoyish etish.
- 20.Manual texnikaning ravonligiga erishish.
- 21.Ijro jarayonida asosiy mavzularni birinchi o'ringa olib chiqish.
- 22.Yordamchi va asosiy mavzular ijrosining uyg'unligini ta'minlash.
- 23.Jo'rnavozlik mahoratini o'zlashtirish.
- 24.Aagogika masalalar.
- 25.Ovozni so'ndirish va fermata turlari harakatlari.
- 26.Pauza turlari, sinkopa va temp masalalarini o'rganish hamda asarning butun ijrosida qo'llar harakatlarini o'z o'rniqa qo'yish.
- 27.To'liq badiiy ijroga erishish va konsert yoki imtiihonga tayyorlanish.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

- Patitura va klavirlarni mustaqil tayyorlash, Mutaxassislik o'qituvchi bilan muloqot qilgan holda partitura tahlili bilan tanishish, asardagi jumlalarni topish, musiqiy shakllarni chuqur o'rganish, kompozitorning hayoti va ijodini o'rganish.
- Jumladagi daromad va avj ijrolarini topish, ularga dirijyorlik harakatlarini o'rganish, mimika hamda gavda holatlarini o'rganish, qo'llardagi kenglik orqali jamoa ijrosini qamrab olishni o'rganish.
- Dinimika va shtrix ijrolari, ularga auftakt harakatlari, holat hamda manual texnikani mukammal o'zlashtirish, sozandalarga o'z vaqtida to'g'ri ko'rsatish, asarning asosiy qismlarini (ekspozitsiya va repriza) o'zlashtirish. (O'qituvchi tomonidan berilgan mashqlardan foydalanish).
- Qo'llar harakatida parallel (sinxron) harakatlarni bartaraf etish, barcha holatlarni asar ijrochiligidagi qo'llay olish, badiiy ijo ustida ishslash, kompozitor fikrini musiqiy talqiniga erishishga harakatqilish, manual texnikani o'z o'rnidagi aniq ishlatish. (O'qituvchi tomonidan berilgan mashqlardan foydalanish).
- Guruhlar bilan ishslash, ularning joylashuvini qo'llarda erkin namoyish etish, asosiy va yordamchi mavzularni topish va ularga ko'rsatish harakatlari, jo'rnavozlik mahoratini oshirish amaliyoti, manual texnikani rivojlantirish harakatlari.
- Asarda agogika, ovozlarni o'z vaqtida so'ndira olish texnikasi, sinkopa harakatlari, pauza turlarini o'zlashtirish. Asarni to'liq ijrosini ta'minlash va mukammal badiiy ijroga erishish.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar).

Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lif standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:

- Dirijyor va dirijyorlik kasbi, shunindek uning kelib chiqishi, orkestr turlari va ularning tarixi;
- Dirijorlik holatini o'zlashtirish;

ESTRADA ORKESTRI DIRIJJYORLIK MAHORATI FANINING O'QUV DASTURI

	<ul style="list-style-type: none"> – Dirijyorlikning bazaviy harakatlari o'zlashtirish va amalda qo'llash; – Partitura o'qish; – O'rganayotgan asarini fortepianoda chala olish (kamida asosiy va yordamchi ohanglarni); – O'Ichov turlari va ularning chizmalari bilan tanishush va amalda qo'llash; – Dirijyorlik tayoqchasini ishlata olish; – O'rganayotgan asari borasida kollokviumga tayyor bo'lish; – Orkestr sinfi fanida dirijyorning qo'l harakatlarini uqib olish, yengil tushunish; – Jahon va O'zbekiston kompozitorlarining hayoti va ijodi, ularning turli yo'naliш va uslublarda yozilgan asarlari bilan yaqindan tanishish; – Musiqiy sezgini oshirish; – Musiqaning shakl tahlilini olib beruvchi bazaviy nazariy asoslar haqida tasavvurga ega bo'lishi; – Asarda jumla; – Agogikaning yengil turlari; – Nutqni o'stirish va muomala san'atini o'zlashtirish; – Estrada musiqa ijrochilgi uslublari bilan tanishib borish; – Repertuariga kiritilgan asarlarni mukammal o'zlashtirish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.
4.	<p>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Audio va video yozuvlardan foydalanish; – Internet resurslaridan foydalanish; – Partitura o'qish mahoratini oshirish; – Manual texnikani o'stirish uchun mashqlar bajarish; – "Aqliy hujum", "Klaster" metodlari; – Talabada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; – Texnik mashqlar ustida ishlash; – Dars jarayonida muloqotga kirishish, ijodiy muhit yaratish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, dirijyorlik harakatlarini aniq va o'z vaqtida ishlata olish, kollokviumga puxta tayyorgarlik ko'rish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil fikrlash va mushohada yuritish, oraliq nazorat jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dasturni ijro etib ko'rsatish.</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lif yo'naliшlari va mutaxassisllari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 202 <u>4</u> yil <u>30</u> avgustdagи <u>1</u>-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: Sh.A.Umarov – O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI dotsenti</p>

ESTRADA ORKESTRI DIRIJJORLIK MAHORATI FANINING O'QUV DASTURI

9.	Taqrizchilar: A.Ikramov – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston estrada-simfonik orkestri bosh dirijyori M.Bafoyev - O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zDK professori, kompozitor, dirijyor
----	--